



IJODKOR
O'QITUVCHI

ТВОРЧЕСКИЙ
УЧИТЕЛЬ

CREATIVE
TEACHER





«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

IJODKOR O'QITUVCHI
ILMIY-USLUBIY JURNAL

MATERIALLARI TO'PLAMI

5-APREL, 2023-YIL

28-SON



INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

doi • digital object
identifier


Google
Scholar

 **CYBERLENINKA**

Ushbu to'plamda "Ijodkor o'qituvchi" ilmiy-uslubiy jurnaliga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Моҳинур Ҳасанова САРИҚ МАТБУОТ ФУНКЦИЯЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚЛАРДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ	264
Satlikova Muhayyo MAKTABLARDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORILIGI	269
Mirxodjayeva Nargiza Baxtiyorovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYALARNI SHAKLLANTIRISH	271
Baynozova O'roloy Odinayevna YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA O'QUVCHI YOSHLARNI TA'LIM-TARBIYA OLISHLARIDA MAKTABNING O'RNI.	274
Сайрамов Файзулло Баратжон ўғли РОЛЬ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В РАЗВИТИИ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ И ОФИЦИАЛЬНОЙ МЕДИЦИНЫ И РАЗВИТИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЕВОДСТВА.	277
Alinazarov Nodirkhan Nasirkhanzoda AMIR TEMUR GREAT COMMANDER AND FOUNDER OF AN EMPIRE	284
Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich THE PROCEDURE FOR USING PSYCHODIAGNOSTIC METHODS IN THE MILITARY SPHERE	288
Н.П.Кучкарова ЧИМБОЙ ТУМАНИ ГИДРОМОРФ ТУПРОҚЛАРИНИНГ АГРОКИМЁВИЙ ҲОЛАТИ	291
Rahmatova Xamida Ismatillo qizi CREATIVE APPROACH TO SPENDING RECREATION MINUTES IN INCREASING LESSON EFFICIENCY IN PRIMARY CLASSES	295
Солижонов Мухаммаджон Зокиржон ўғли, Ходжиева Иродахон Икром қизи ОСНОВЫ СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ	300
Ismoilova Fotima Baxriddinovna XURSHID DO'STMUHAMMAD HIKOYALARIDA NOAN'ANAVIYLIK	303
Oblaqulov S.T. Saydaxmatov Sh.O. QURILISH SOXASIDA XAVFSIZ MEHNAT SHAROITLARINI YARATISH	306
А.Ж. Курбонов , Абдурахмонова Азода Джуроевна , D.Inomova КУЧЛИ ТАЪСИР ЭТУВЧИ ЗАҲАРЛИ МОДДАЛАР БИЛАН БОГЛИҚ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ	311
Bazarova Ro'zigul SHUKUR XOLMIRZAYEVNING HAYOT YO'LLARI VA ASAR QAHRAMONLARINING TALQINI	318
Ergasheva Xonoyim Abduqaxxorovna MIKROBIOLOGIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI	322
H. Safoev TALABA-YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALAS TIZIMI	326
Qurbonova Mohiniso Shomurod qizi BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH	330
Ergasheva Xonoyim Abduqaxxorovna BIOTEXNOLOGIYA FANINING YUTUQLARI VA OLDIGA QO'YGAN MAQSAD VAZIFALARI	333
Nabiyeva Difuza Temirovna Hosilbekova Mahbuba Shuhrat qizi BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	336
Абдусаломов Дониёр Рустам ўғли VOLEYBOLDA SAKRASH VA TEZLANISH, CHAQQONLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	338
Razzoqov Baxtiyor Xabibullayevich OLIY TA'LIM TALABALARINING KOMPETENTLIGINI SHAKLLANISHIDA MUSTAQIL TA'LIMNING ROLI	341
Sultanova Dilnura Abdurashidovna Amanova Halima Abdumutal qizi SOHIBQIRON AMIR TEMUR MEROSINI O'RGANISH – MILLIY TARAQQIYOTIMIZ OMILI	345
Ne'matullayeva Fayoz O'ZBEK ADABOTIDA SHUKUR XOLMIRZAYEVNING TUTGAN O'RNI	349
Mustaev Ruslan Damirovich Abdumutalov Muxriddin Mamazulun o'g'li No'monov Ilhomjon Boxodirjon o'g'li YOSHLARNING HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIDA RAHBARLIK FAOLIYATI	352

SOHIBQIRON AMIR TEMUR MEROSINI O'RGANISH - MILLIY
TARAQQIYOTIMIZ OMILI<https://doi.org/10.5281/zenodo.7840845>**Sultanova Dilnura Abdurashidovna.***Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fakulteti
"Maktab menejmenti" kafedrası o'qituvchisi***Amanova Halima Abdumutal qizi.***Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fakulteti,
"Maktab menejmenti" yo'nalishi 1-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi, saltanatni boshqarish va uni mustahkam bo'lishidagi hamda ichki va tashqi siyosat, millatparvarlik sohalarida amalga oshirgan islohotlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishishingiz mumkin.*

Tayanch so'zlar: *Buyuk davlat arbobi, Temuriylar davlati, komil inson, adolatli tamoyillar, Yassaviya tariqati, intizom me'yorlari tarixiy-xuquqiy tadqiq, insonparvarlik.*

Аннотация: *В этой статье вы можете ознакомиться с информацией о реформах, проведенных Амиром Темуrom в области государственного управления, в управлении и укреплении королевства, а также в областях внутренней и внешней политики и национализма.*

Ключевые слова: *великий государственный деятель, тимуридское государство, совершенный человек, справедливые принципы, секта Яссавия, историко-правовое изучение дисциплинарных норм, гуманизм.*

Abstract: *In this article, you can get acquainted with the information about the reforms implemented by Amir Temur in the field of public administration, in the management and strengthening of the kingdom, and in the fields of domestic and foreign policy and nationalism.*

Key words and phrases: *veliky gosudarstvennyy deyatel, Timuridskoe gosudarstvo, sovershennyy chelovek, spravedlyvye principley, Yassaviya sect, istoriko-pravovoe izuchenie disciplinarnyx norm, humanism.*

Milliy tariximizdan ma'lumki, Amir Temur va Temuriylar davri milliy davlatchiligimizda o'zining salohiyati, boshqaruv usullari, ma'naviy kuchi va o'zaro ta'sir darajasi bilan alohida o'rin tutadi.

Mashhur davlat arbobi, O'rta asrlar islohotchisi, sarkarda, adolat uchun tolmas kurashchi, ilm-fan va madaniyat rahnamosi Amir Temur davrida ilm-fan, madaniyat va ta'lim mislsiz darajada yuksaldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mustaqil diyorimizda Amir Temurga bag'ishlangan bir qancha tadbirlar, konferensiyalar o'tkazildi, shuningdek, har yili Amir Temur tavalludini keng nishonlash hamda Amir Temurga atab "Temuriylar Davlat muzeyi" ham tashkil etilgan. Bularning barchasi yosh avlod uchun o'rnak bo'lishi, ularning qalbida ajdodlarimizga bo'lgan mehrni yanada oshirish va ularning boshqaruv qobiliyatini qilgan barcha sa'y-harakatlarini o'rganish avlodlar uchun foydadan xoli emas. Shu bilan birga

Amir Temur merosi bugungi kunda xalqimiz uchun ruhiy-ma'naviy poklanish va milliy o'zlikni anglash uchun bitmas-tuganmas boylik hisoblanadi.

Nafaqat O'zbekistondagi balki O'rta Osiyodagi tarixiy obidalar, go'zal maskanlarning ko'pchiligi Amir Temur davrida vujudga kelgan. Temuriylar davri har sohada chinakam uyg'onish davri bo'ldi. Amir Temurning ma'naviy jasorati, Amir Temur hazratlari amal qilgan hayotiy mezonlar bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan Yangi O'zbekiston taraqqiyotida, kundalik ishlarimizda, davlatimiz salohiyatini oshirish, xalq farovonligini yuksaltirish sari bosayotgan qadamlarimizda har doimgidan-da yuqoriroq darajada namoyon bo'lib boraveradi. Davlatimizning siyosati va xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29-dekabrda «Amir Temur tavalludining 660 yilgini nishonlash to'g'risida»gi qarori, 1995 yil 26 dekabrda esa «1996 yilni «Amir Temur yili» deb e'lon qilish to'g'risida»gi farmonlari qabul qilindi. 1996 yil martida «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil qilish xususida, «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risida farmonlar chiqdi.

Amir Temur ziyrak siyosatdon va mohir arbob edi. Har qanday davlat o'z faoliyatida ma'lum ijtimoiy guruhlariga tayanadi, hokimiyatni qo'lga olgandan keyin esa o'sha ijtimoiy guruhning maqsad va manfaatlarini himoya qiladi. Temur va temuriylar davlati ham bundan mustasno emas albatta. U ham aslida, mohiyati bilan, mol-mulk egalarining davlati bo'lgan. U o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farqli o'laroq davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyanadi.

Mana o'sha tabaqalar:

- 1) sayyidlar (payg'ambar avlodi), ulamo, mashoyix, fozil kishilar ya'ni ziyolilar;
- 2) ishning ko'zini bilgan donishmand kishilar;
- 3) xudojo'y, darvesh, qalandarlar;
- 4) no'yonlar (xonzodalar, tuman, ya'ni 10 ming kishilik qo'shin boshliqlari) va mingboshilar ya'ni harbiy kishilar;
- 5) sipoh va raiyat, ya'ni askarlar va avom un-nos;
- 6) maxsus ya'ni ishonchli kishilar;
- 7) vazirlar va sarkotiblar;
- 8) hakimlar va tabiblar, munajjimlar va muhandislar;
- 9) tafsir va hadis olimlari;
- 10) ahli sanoat (hunarmandlar, kosiblar);
- 11) so'fiylar,
- 12) tujjor (savdogar) va sayyohlar.

"Saltanatim qonun-qoidalarini, - deydi Amir Temur o'z "Tuzuklari"da, - shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Shu o'n ikki toifani saltanatim osmonining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim".

Amir Temur tuzgan markaziy davlat tizimiga kelsak, uni yetti vazir boshqaradi. 1) mamlakat va raiyat vaziri, 2) sipoh vaziri, 3) moliya ishlari vaziri, 4) saltanat ishlarini yurituvchi vazir; hamda beshinchi, oltinchi, yettinchi vazirlar - sarhad vazirlari boshqaradi. Lekin ularning kim va nimaligi, ya'ni zimmasiga qanday vazifalar yuklatilganligi aniq ma'lum emas [1].

Temur o'z davrida saltanat manfaatini xalq manfaatiga bo'ysundira olgan davlat rahbari edi. Temur siyosiy qarashlari tizimining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u har bir

siyosiy masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so'ngra qaror qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari turli shakl va darajada bo'lardi. Shu bilan birga Amir Temurning Turkiston zamin xalqlari oldida qilgan birinchi katta xizmati shundan iboratki, u XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda kuchayib ketgan feodal tarqoqligiga barham berdi, mamlakatni mo'g'ullar istilosidan ozod etib, el-yurtni bir tig' ostiga birlashtirdi va markazlashgan feodal davlatga asos soldi.

Amir Temur haqida uning zamondoshlari qimmatli yirik asarlar yaratganlar. G'iyosiddin Alining "Ro'znomayi g'azovoti Hinduston", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarlarini sanab o'tish kifoya. Ammo "Tuzukoti Temuriy" asari bular orasida alohida o'rin egallaydi. "Tezukoti Temuriy"- tarixiy va huquqiy asar bo'lib, unda Turkistonning buyuk farzandi - Amir Temurning davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarish xususidagi nuqtai-nazardan bayon etilgan, "Tuzukoti Temuriy" ikki maqoladan tarkib topgan. Birinchi maqola Temurning davlatni tuzish va mustahkamlash, qo'shnlarning jangavor tartiblari jadvallari bilan yakunlanadi. Ikkinchi maqoladagi 13-kengash va uning mayda bo'limlarida Amir Temurning taxtga chiqishi va yurishlari tasvirlanadi, Amir Temur davlatni idora qilishda vazirlar, amirlar va viloyat-vodiylarga alohida e'tibor bergan.

Vazirlar, "Tuzukot" muallifining fikricha, quyidagi to'rt sifatga ega bo'lishi zarur: 1) asillik, tozanasllik va buyuklik; 2) aql-u farosat; 3) sipoh-u raiyat ahvolidan hamdardlik va ularga xushmuomalada bo'lish; 4) sabr-u bardoshlik va oriyatlilik.

Amir Timur armiyasi tashkiliy-harbiy tuzilishi, jang olib borish usullari jihatidan o'sha paytdagi eng qudratli armiya edi. Lekin, tashkil etilishi qadimgi turklardagidek, ya'ni O'g'uzxon va Chingizxon tuzgandek edi. Qo'shin 10 ming kishilik tuman tartibida tuzilib, o'nlik, yuzlik mingliklarga taqsimlangan, cherik tarzida tuzilgan bo'lib, otliqlar va piyodalardan iborat edi. Bizgacha ana shu forsiy nusxa tosh bosmalar, zamonaviy nashrlar va qo'lyozmalar shaklida yetib kelgan. Husayniy Turbatiy forscha tarjimani 1637-yil boburiy hukmdor Shoh Jahonga (1628–57) tortiq qilgan. Shoh Jahon tarjima bilan tanishib chiqib, unda ayrim noanikliklar va kamchiliklar topgan hamda yirik olim, Dekan viloyatining qozikaloni Muhammad Ashraf Buxoriyni (vafoti 1652-yil) huzuriga chaqirtirib, mazkur tarjimani mo'tabar asarlar, xususan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si va shunga o'xshash muhim manbalarga solishtirib chiqish va shu yo'l bilan tarjimadagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilishni topshirgan. Muhammad Ashraf Buxoriy ko'rsatmaga ko'ra, Mir Abu Tolib al Husayniy at Turbatiy nusxasini diqqat bilan tahrir qilgan. Shu zaylda asarning yangi, to'ldirilgan tahriri vujudga keladi va u "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Voqeoti Temuriy" ("Temurning boshidan kechirganlari") nomi bilan taniladi.

"Tuzuki Temuriy" nusxasini dastlab Hindistonda yashagan ingliz zobiti mayor Devi 1779-yilda Angliyaga olib kelgan. So'ngra arab tili professor ingliz mayori Uaytga uni ko'rib chiqish uchun topshirgan.

Amir Temur dasturi va siyosiy-huquqiy qarashlarida mukammal jamiyatni orzu qilishdan ko'ra, ko'proq uni amalga oshirish hamda uning mas'uliyatini o'z zimmasiga olish yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun ham Amir Temurning davlat arbobi, sarkarda va mutaffakir sifatidagi o'ziga xos tomoni shundaki, u o'zi hukmronlik qilgan saltanatni mustahkam qilib qo'riqlay oldi. Shuningdek, Amir Temur savdo-iqtisodiy munosabatlar orqali xalqlar va mamlakatlar orasida yagona makon yaratishda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi [2].

Xulosa o'rnida aytish joizki, Buyuk sarkarda, Davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur tarixda o'zining har tomonlama sa'y-harakatlari bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o'rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isbotidir. Bularning barchasi biz yosh avlod uchun ko'plab yutuqlarga erishishimizda va ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishimizga asosiy tayanch, yoshlar ongiga harbiy vatanparvarlik, vatanga sadoqat, millat manfaati uchun kurash singari g'oyalarni mustahkamlashda dasturil-amal bo'lib xizmat qiladi. Zero, uchinchi renesans poydevorini qurish uchun da'vat etilgan yosh avlod o'zlari uchun munosib o'rnak va namuna timsoli borligidan faxrlanish hissini tuysalar, ajabmas.

O'zbekiston jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan turli sohalarda o'zaro manfaatli aloqalarni keng yo'lga qo'ymoqda, hamkorlikning barcha shakllarini rivojlantirish yo'lida izchillik va qat'iyat bilan odimlamoqda. Bu yo'lda bizga o'tmishimizdagi buyuk ajdodlarimiz, ayniqsa, sohibqiron Amir Temur ruhi doim hamrohdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bo'riboy Ahmedov. Amir Temurni yod etib. Toshkent-2018. 390-bet.
2. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. O'zbekiston NMIU-2018. 160-166-bet.
3. Adambaev Jumanazar Xayitbaevich "Amir Temur" haqida 'ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES' -2021 ISSN:2181-1385.
4. Musurmonov, R., Khimmataliev, D. O., Sultanova, D. A., qizi Tursunbaeva, Y. R., Khakimova, I. K., & Musurmonova, M. (2023). In the Conditions of New Uzbekistan the Main Issues of Science and Modern Education. Telematique, 7686-7694.
5. K.M.Xurramov, M.J.Toshov. "Yangi O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim muammolari va pedagogika fani taraqqiyoti istiqbollari xususida". Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» Илмий-методикалык журнал. 2021 йил № 4. 38-42 бетлар.
6. Tursunbayeva Yulduz Radj qizi, T. Y. R. (2021). Ta'lim psixologiyasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 587-591.